

3 / 2020

ISSN 2181-8495



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
БАНК-МОЛИЯ АКАДЕМИЯСИ

*Тадқиқотларни рағбатлантириш
ва натижаларни оммалаштириш*

Молия ва Банк иши (электрон илмий журнал)

Finance and Banking
(electronic scientific journal)

Чоп этувчи ташкилот:
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Манзил: Ўзбекистон, 100000, Тошкент, Мирзо Улугбек тумани, Мовароуннахр кўчаси, 16

МУНДАРИЖА

БАНК ИШИ

Tursunov A.S.	Directions of development of Islamic banking services in commercial banks	6
Азимова Д.М.	Ўзбекистонда давлат қарзини бошқариш тизими니 такомиллаштириш	10
Шарипова Н.Х.	Появление электронных платежных систем, их виды и современное состояние в Узбекистане	15
Хошимов Э.А.	Рақамли иқтисодиёт шароитида криптовалюталарни тартибга солиш масалалари	21

МОЛИЯ

Усмонов Қ.А.	Пандемия шароитида давлат бюджети	27
Жуманиязов И.Т.	даромадлари: йўқотишлар ва чоралар	
Махмудова М.Қ.	Молиявий рискнинг назарий тушунчаси, иқтисодий моҳияти ва ўзига хос жиҳатлари	34

СУҒУРТА ИШИ

Абдурахмонов И.Х.	Ўзбекистонда суғурта тармоқларини рақамлаштириш йўналишлари	41
Баймуратов Т.М.	Суғурта ташкилотлари молиявий рискларини баҳолаш: концептуал ёндашувлар ва тизимлилик	50
Баймуратова Г.Т.	Перспективы развития рынка страховых услуг в Республике Узбекистан	61
Матиязова С.Р.	Общетеоретический аспект финансовой устойчивости страховых компаний	66
Раджабов У.А.	Суғурта муносабатларида мажбурий суғуртанинг ўрни	71
Ҳамраева Ф.Ш.	Ҳаёт суғуртасида андеррайтинг жараёнини ривожлантириш	77
Юлдашев О.Т.		

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ

Toshmamatov N.	Hisobchilikning tarixiga bir nazar	84
Хоjaев A.S.	Коррупцияга қарши тадбирлар аудитининг моҳияти ва ташкилий-услубий жиҳатлари	93
Дусмуратов Р.Д.	Харажатларнинг бошқарув ҳисобини такомиллаштириш	99
Давлетов И.Р.	Аудитнинг халқаро стандартлари асосида фаолиятни узлуксизлиги тўғрисидаги фаразни текшириш	107
Жуманиязов И.Б.	Солиқ таҳлилининг назарий масалалари ва ҳисоб-ахборот таъминоти	116
Исмонов И.Н.	Чорвачиликда бошқарув ҳисоби харажатларини туркумлашнинг аҳамияти	125
Муйдинов Э.Д.	Кўчмас мулкнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	131
Исаев Ф.И.	Суғурта ташкилотларида ҳисоб-китоб ишлари самарадорлигини оширишда ахборот-коммуникация технологияларнинг ўрни	137
Менгликулов Б.Ю.		
Назаров А.К.		
Очилов И.К.		
Очилов Ф.	Мол етказиб берувчи ва пурратчилар билан ҳисоб китобларнинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш масалалари	142

Паязов М.М. Ачилов А.Н.	Аҳоли тадбиркорлигини самарали бошқариш, молиявий - ижтимоий қўллаб қувватлашни таъминлаш, солиқقا тортишни такомиллаштириш	148
Сайфутдинов Б.	Халқаро стандартлар асосида ҳисоб сиёсатини тузиш жараёнини такомиллаштириш	155
Сатторов А.Х.	Америка ва Осиё мамлакатларида аудиторлик фаолиятини ўрганиш тажрибаси	160
Хакимов Б.	Молиявий мустақиллик кўрсаткичи: иқтисодий муносабат, мазмун ҳамда номланиш изчил бўлсин	168
Инвестициялар ва инвестицион фаолият		
Боронов Б.Ф.	Молиявий инвестицияларни ҳиссали қатнашиш методи асосида баҳолаш	173
Кадирова Х.Т.	Основные направления совершенствования деятельности субъектов финансового рынка	181
Қурбонов М.А.	Бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан харожатлар йўналишларига инвестициялардан фойдаланиш	190
Макро ва микроиқтисодиёт		
Saloxitdinov Sh.F. Shamiyeva S.F.	O’zbekistonda mehnat bozori va uning amal qilish xususiyatlari	195
Xamidova Z.A.	Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning xorijiy tamlakatlar tajribasi	201
Нурмуҳаммадов Х.Х.	Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарни бошқаришнинг хуқуқий асосларини такомиллаштириш	214
Холмўминов Ш.Р. Бобаназарова Ж.Х.	Глобал пандемия инқирози шароитида қишлоқ хўжалигига иш билан бандликнинг истиқболлари	220
Умирзоқов Ж.А.	Covid-19 пандемияси шароитида эркин иқтисодий зоналарни ривожлантириш: хорижий ва миллий тажрибаларнинг қиёсий таҳлили	229
Икромов Ж.А. Авазов Н.Р. Махмудов Н.М. Файзиева Д.Ш.	Коронавирус пандемиясидан кейинги дунё ва унинг иқтисодий оқибатлари таҳлили	237
	Меҳнат бозорини эмпирик билишнинг умумилмий усуллари	244
Менежмент ва маркетинг		
Жумаев Н.Х. Хошимов Э.А.	Монополияга қарши комплаенс тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устувор жиҳатлари	249
Сагдиев Р.С.	Инновацион фаолиятда рискларнинг моҳияти ва гуруҳланиши	255
Солиқлар ва солиқقا тортиш		
Абдулов Д.Р.	Эффективность фискальной политики государства	261
Бабаев Ш.Б.	Жисмоний шахслардан олинадиган солиқлар бўйича тушумларни прогнозлаштиришда солиқ хавфини баҳолашни такомиллаштириш	268

**HUNARMANDCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN
QO`LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

Xamidova Z.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san`atining rivojlanishini davlatimiz tomonidan qo`llab-quvvatlash maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada yangi islohotlar davrining boshlanishida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning boy tajribasini o`rganish, ulardan bizning sharoitimiz va mentalitetimizga xos jihatlarni amalda qo`llash bugungi kunda dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, xalqaro va mahalliy doirada raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda milliy-tarixiy qadriyatlarning asosi bo`lgan hunarmandchilik faoliyatini asrab-avaylashda har bir davlatdan alohida mas`uliyat va e`tibor talab etadi. Ushbu maqolada bir qator xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hunarmandchilik faoliyatini rivojlanantish borasida olib borayotgan siyosati doirasidagi tajribalari yoritilgan. Tadqiqot va tahlillar asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: hunar, hunarmandchilik, hunarmandchilik turlari, ishlab chiqarish, mahsulot, xalqaro tashkilotlar, siyosat, san`at

1. Kirish.

Hunarmandchilik faoliyati va uning turli davatlarda rivojlanish xususiyatlari va unga ta`sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar bir-biridan farq qiladi. Bu borada ham turli doirada solishtirma ilmiy-tahvilidagi tadqiqotlar olib borilgan bo`lib, bunda asosiy maqsad hunarmandchilikning rivojlangan va rivojlanayotgan davatlarda tutgan o`rni, an`anaviy va rivojlangan jamiyatning bu sohaga nisbatan munosabatini baholash, shuningdek soha yo`nalishlarini imkon qadar saqlab va qayta tiklashning samarali yo`llarini taqdim qilishdan iboratdir. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hunarmandchilik, qo`l mehnati va uning iqtisodiy mohiyati turli davatlarda turlicha tushunilib, iqtisodchilar bu sohaga yetarlicha e`tibor qaratmaganligi ma`lum bo`lgan. Shunday bo`lsada dunyo mamlakatlarida hunarmandchilik o`tgan asrga nisbatan jonlanganligi kuzatilgan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Turli davrlarda hunarmandchilik faoliyati siyosatchilar, muzeylar, dizaynerlar hamda ayrim soha vakillarining (shaxsiy sektor) e`tiborini tortib kelgan. Bu esa uning vaqtini vaqt bilan jonlanishiga turtki bo`lgan (Luckman, 2015):

Birinchi jonlanish sanoatlashtirish va Uilyam Morrisning "San'at va hunarmandchilik (Arts and Crafts movement)"¹ harakati bilan bog`liq ravishda sodir bo`ldi.

Ikkinci jonlanish to`lqini 1960-1970 yillarda Xippi (hippy)² harakati bilan sodir bo`ldi.

Va nihoyat, yaqin o`tmishda yuz bergen iqtisodiy inqiroz davrida daromad manbai sifatida hunarmandchilikka e`tibor kuchayishini "Buni o`zing qil (Do it yourself – DIY³)" harakatining ommalashuvi bilan tavsiflangan uchinchi jonlanishga guvohi bo'lismiz mumkin.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda kichik doirada ishlab chiqarish faoliyatini rag`batlantirish imkoniyatiga ega shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirishda hunarmandchilik alohida ahamiyatli soha sifatida qaralib, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotining mustahkamlanishiga hissa qo'shuvchi mahalliy mahsulotlar eksportini ko`paytirish manbai sifatida qaralmoqda. Qizig'i shundaki,

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Arts_and_Crafts_movement

² https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_the_hippie_movement

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Do_it_yourself

rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'plab hunarmandlar davlat tomonidan yetarlicha e`tibor berilmaganligi sababli o'z faoliyatlarini to`xtatayotgan bir paytda rivojlangan mamlakatlarda ko'plab yoshlar hunarmandchilikka inqirozdan keyingi daromad olishning noyob manbai sifatida qaramoqda (Mignosa va Kotipalli, 2019).

3. Tadqiqit metodologiyasi.

Ushbu maqolada xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning hunarmandchilik siyosati o`zaro solishtiriladi. Bunda, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya hamda ilmiy abstraktsiya usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hunarmandchilik o'tmish va kelajak o'rtasidagi mustahkam aloqani yaratish bilan birga xalqaro doirada madaniy va iqtisodiy-diplomatik munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalqaro doirada bu sohani qo'llab-quvvatlash hamda himoya qilishda bir qator xalqaro tashkilotlar yaqindan yordam beradi. Hunarmandchilik faoliyatiga munosabat esa ushbu tashkilotlarning o`ziga xos xususiyati va maqsadli islohotlariga qarab bir-biridan farq qiladi. Masalan, YuNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti faoliyati doirasidagi tafovutlar ular foydalananadigan hunarmandchilik tushunchasining tafovutini ko'rsatadi.

Hunarmandchilikning ta'rifi haqida ikki tomonlama talqin yuzaga keladi:

1. Nomoddiy madaniy meros sifatidagi hunarmandchilik.
2. Madaniy va ijodiy sanoat sifatidagi (Cultural and Creative Industries – CCI) hunarmandchilik.

YuNESKO tashkiloti hunarmandchilikni madaniy va iqtisodiy hayotning ajralmas qismi sifatida qarab, uning maqomini saqlash, mustahkamlash va ta'minlash hamda dunyo bo'ylab hunarmandlar o'rtasida o`zaro do'stona munosabatlarga targ'ib qilishga asosiy e`tiborni qaratadi. Shuningdek, hunarmandlarni rag'batlantirish, yordam berish, ularning xalqaro doirada tan olinishi yo`lida alohida madaniy va milliy kelib chiqishi va urf-odatlarini inobatga olgan holda turli tadbirlarni amalga oshirishga tashabbus ko`rsatadi⁴.

Shu bilan birga hunarmandchilik faoliyatini sanoatning tarkibiy ko`rinishi sifatidagi xususiyatlarini inobatga olib, ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida tashkilotlar ham vujudga keldi (Amerika Hunarmandlar Kengashi, Jahan Hunarmandlar Kengashi) (Mignosa va Kotipalli, 2019).

Jahan hunarmandlar Kengashi (World Craft Council) 1964 yilda Belgiyada nodavlat-notijorat tashkilot sifatida tashkil etilgan va boy madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish uchun seminarlar, konferensiylar va ko'rgazmalar o'tkazish orqali butun dunyoda hunarmandchilik tashkilotlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu tashkilotning turli mintaqalar a`zosi bo`lib, har bir mintaqaga hunarmandchilik yo`nalishlari boyicha rivojlantirishning o`ziga xos xususiyatiga ko`ra farq qiladi. (1-rasm)


Shuningdek, Jahan hunarmandlar kengashining har bir mintaqalar bo`yicha maqsad va vazifalardan kelib chiqib alohida rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan. Xususan, O`zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasi bilan WCC tashkiloti o'rtasida olib borilgan muzokaralar natijasida bu tashkilotga a`zo bo'lishi, o'zbek hunarmandlarining xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun, shuningdek, ularning xorijdagi ko'rgazmalarini tashkil etish hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosini uchun keng imkoniyatlar yaratadi⁵.

Hunarmandchilikning mohiyati va uning xususiyatlaridagi tafovutlarni har bir mamlakatning milliy-madaniy xususiyatlari hamda rivojlanish yo`li va darajasiga qarab farqlash mumkin. Turli mamlakatlarda hunarmandchilik siyosatini ishlab chiqishda ko'pincha siyosatning asosiy fazilatlari va maqsadlariga yo'naltirilgan o'zgarishlarni ko`rish mumkin. Hunarmandchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turli shakllarda amalga oshiriladi. Jahan tajribasida eng ko`p tarqalgan jihatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- rasmiy ta'limi tashkil etish (Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya);
- shogirdlik amaliyotdan foydalanish (Germaniya, Gollandiya);
- katta yoshdagagi avlod vakillaridan yosh avlodga o'z bilim va ko`nikmalarini yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarning kiritilishi (Yaponiya, Frantsiya) (Klamer A va boshqalar, 2013).

⁴ <https://en.unesco.org/partnerships/non-governmental-organizations/world-crafts-council>.

⁵ <http://xs.uz/uz/post/hunarmand-uyushmasi-zhahon-hunarmandlar-kengashining-azosi-boldi>.



1-rasm. JHK (WCC)ga a`zo mintaqalarning asosiy vazifasi⁶

Lekin, qizig'i shundaki, xalqaro tadqiqotlarga ko`ra hunarmandlarning aksariyati rasmiy ma'lumotga ega bo`lmay, oila a'zolari, usta-hunarmandlar va tengdoshlaridan o'rganishadi. Fraterning ta'kidlashicha, hunarmandchilik usullari to'g'risida odamlarga ma'lumot berish usuli sifatida ta'lif hunarmandchilikni qadrlash va unga bo`lgan talabni rivojlantirish vositasi bo`lishi mumkin (Frater, J. 2015).

Bu kabi hunarmandchilikni rivojlantirishni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi xorijiy davlatlarning boy tajribasini tahlil qilish bilan birga mamlakatimizdagи o'ziga xos jihatlarini solishtirish va munosib tomonlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Buyuk Britaniyaning hunarmandchilikni rivojlantirish siyosati

Ma'lumki, hunarmandchilik sohasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qilishi, uning shu mamlakatda tutgan o'rniga bog'liq. Buyuk Britaniyada bu astasekin Birlashgan Qirollik hukumati 1997 yilda ijodiy sohalarni aniqlashda o'z o'rnini tasdiqlaganidan keyin kuchayib bordi (Madaniyat, ommaviy axborot vositalari va sport vazirligi – DCMS, 1998)⁷, bu esa sohani rivojlantirish bo'yicha siyosatni ishlab chiqishda o'z rolini talab qilishga imkon berdi.

Birlashgan Qirollikda o'zaro kelishuvga binoan hozirda to'rtta davlatning har biri hunarmandchilikka bevosita ta'sir qiluvchi ijodiy va madaniy siyosat uchun mas'ul bo'lgan o'z vazirligiga ega. Shuningdek, San'at Kengashining qonuniy organlari, Hunarmandchilik Kengashi, Shimoliy Irlandiyaning hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy agentligi (Craft NI) va Shotlandiya hunarmandchilikni rivojlantirish milliy agentligi (Craft Scotland) kabilar hamda hunarmandchilikni rivojlantirishda moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydigan mahalliy tashkilotlar mavjud (Bennett J. 2019).

⁶ <https://www.wccinternational.org/regions>

⁷ <https://www.gov.uk/government/publications/creative-industries-mapping-documents-1998>.

Shuningdek, "Green Paper" sanoat strategiyasi hukumatning Buyuk Britaniyada yanada kuchliroq, adolatli rivojlanish g`oyalarini muhokama qilish uchun belgilangan bo`lib, hukumat tomonidan ma'lum bir siyosiy sohada foydalanishi mumkin bo`lgan maslahatlar, ba'zan qonunchilik bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi. Ushbu strategiya odatda keng qo`llanilib, hukumatning rivojlanish xususiyatlariiga ta'sir qilib. Strategiya ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarmoya kiritish majburiyatlarini, savdo va ichki investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini hamda texnik ta'limning yangi tizimini joriy qilishni o'z ichiga oladi⁸. KPMG⁹ ta'kidlaganidek, "Hunarmandchilik ko'nikmalari va bilimlari kuchli iqtisodiy ta'sirga ega bo`lib, boshqa sohalar va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun muhim salohiyatga egadir" (KPMG LLP, 2016).

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya birlashgan qirolligi hunarmandchilikni rivojlantirish va uni qo`llab-quvvatlashda Hunarmandchilik kengashi va Buyuk Britaniyaning sakkizta yetakchi milliy sherkilari bilan birgalikda hunarmandchilik bozorining xususiyatlarni o'rganish uchun hamkorlik qilmoqda. Ularning tadqiqoti doirasida so'nggi o'n yil ichida yuqori darajada xarid qilingan hunarmandchilik mahsulotlaridan tortib, bu sohaning aynan qaysi yo`nalishlariga qiziqish ortib borayotganligini tahlil qilish yetakchi masala bo`lib, bunda, ushbu sohaga ixtisoslashgan bozorni qanday rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va o'stirish mumkinligi haqidagi dolzarb masalalarga ko'proq e'tibor beriladi. Shu bilan birga, hunarmandchilik mahsulotlarini sotib oluvchi ijtimoiy tabaqalar, ko`proq xarid qilinayotgan mahsulot turlari, hozirgi va yaqin kelajakda yuz berishi mumkin bo`lgan bu sohaga doir o'zgarishlar va uni qo`llab-quvvatlovchi infratuzilmalar bo`lishga ko`proq e'tibor qaratadilar.

YUNESKO Buyuk Britaniyani madaniy meros hamda hunarmandchilikni qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish borasidagi innovatsiyalar bo'yicha dunyoda etakchi ekanligini ko'rsatmoqda¹⁰. Mamlakatda hunarmandchilik va u bilan bog`liq biznes sharoitini qanday qilib yaratish borasida oltita hudud kesimida (Birmingham, Xalifaks, Xastings, Redrut, Sautgempston va Stok-on-Trent) so`rovnomalar o'tkazilganda quyidagi natijalar kuzatildi¹¹:

- Rivojlanishni qo'llab-quvvatlash doirasida - 65% odamlar san'at va madaniyat farovon hayot uchun foydali, 36% san'at va madaniyat "hayot uchun zarur" deb hisoblashdi;
- Biror hududga muntazam yashash va ishslashga turli odamlarni jalb qilish doirasida – mintaqada qolganlarning 44 foizi va boshqa joyga ko'chib ketganlarning 43 foizi, qaror qabul qilishda muhim omil sifatida san'at va madaniyatni ta'kidladilar;
- Jamiyatni barpo etishga yordam berish doirasida - 49% odamlar san'at va madaniy tadbirlarda qatnashish hunarmandlarning o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishlariga yordam beradi deb o'ylashadi, 68% esa bu tadbirlar jamoatchilik tuyg'usini rivojlantirish uchun juda muhim deb o'ylashdi.

Ushbu tadqiqotlar noyob tajribalarni taqdim etish bilan birga ushbu hududlarga tashrif buyuruvchilarni ko`proq jalb etish, sayohatchilar hamda bu borada faoliyat olib boruvchilar uchun jozibali joy sifatida targ'ib qilishda yordam beradi.

Ma`lumotlarga ko`ra, 2015-2016 yillarda Angliyadagi aholining 19,6 foizi hunarmandchilikning bir turida ishtirok etgan, 13,8 foizi esa to'qimachilik (masalan, kashta tikish, to'qish va to'quv) bilan shug'ullanishgan (Bennett J. 2019).


DCMS (Department for Digital, Culture, Media & Sport)ning hisoboti bo`yicha eksport raqamlari shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik 2017 yilda Buyuk Britaniya iqtisodiyotida 4,835 milliard funt sterlingni tashkil etdi. 2016 yildan beri hech qanday o'zgarish bo'lmasa, 2010 va 2017 yillar orasida bu ko'rsatkich 25% ga oshgan. (2-rasm)

⁸ <https://www.politics.co.uk/reference/green-paper>.

⁹ KPMG (Klynveld Peat Marwick Goerdeler) - bu audit, soliq va maslahat xizmatlarini taklif qiluvchi mustaqil a'zo firmalarning global tarmog'i. <https://home.kpmg/xx/en/home/about/who-we-are.html>.

¹⁰ <https://www.unesco.org.uk/press-release/cultural-heritage-innovation/>.

¹¹ <https://www.artscouncil.org.uk/publication/value-arts-and-culture-place-shaping>.



2-rasm. Hunarmandchilik sohasida tovarlar eksporti, (milliard funt sterling)¹²

Mamlakat bo'yicha hunarmandchilik tovarlari va xizmatlari eksportining 40% Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga (asosan Fransiya, keyingi o'rinnlarda Italiya va Irlandiya bilan), 40% Osiyoga (asosan Ko'rfaz davlatlari), qolgan qismi NAFTA va Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan mamlakatlarga (asosan Shveytsariya) to`g`ri keladi. Import bo`yicha esa asosan Belgiya, Xitoy va Hindiston Buyuk Britaniya uchun alohida ahamiyat kasb etadi¹³. (1-jadval)

1-jadval

Hunarmandchilik mahsulotlari eksportining geografik mintaqalar boyicha taqsimoti (Milliard, funtsterling)

Nº	Hamkorlar	Hunarmandchilik mahsulotlari
	Jahon bo'yicha	4 848
1.	Yevropa	2 029
	Yevropa ittifoqi	1 056
	Yevropaning qolgan hududlari	972
2.	Amerika Qo'shma Shtatlari	651
3.	NAFTA	646
4.	Lotin Amerikasi & Karib orollari	5
5.	Osiyo	2056
6.	Okeaniya	15
7.	Afrika	98

Xitoy Xalq Respublikasining hunarmandchilikni rivojlantirish siyosati

Xitoy hunarmandchiligi butun jahon miqyosida o`z o`rniga ega bo'lub, Xitoyning uzoq o`tmishga borib taqaluvchi boy tarixini, ajoyib madaniyatini, badiiy va estetik qadriyatlarini o`zida aks ettiradi. Xitoya hunarmandchilik asosan kundalik hayot bilan bog'liq bo'lub, aholining hayot tarzining bir qismiga aylangan. Xitoyning o`ziga xos, takrorlanmas geografik joylashuvi va qishloq xo'jaligi sivilizatsiyasining uzoq tarixiy ahamiyatga ega boy tajribasi bu sohaning muntazam rivojlanib borishiga ta`sir qilgan. Ming yillar davomida qishloqda yashovchilarning hayoti Xitoyning an'anaviy hunarmandchilik madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'lган. Xitoy Xalq Respublikasining dastlabki tarixiy o'tish davrida (1949-1957), Xitoy hukumati "Sanoat mashinalari evaziga hunarmandchilikdan foydalanish" shiori bilan chiqdi va o'zining eksport afzalligi bilan Xitoy

¹² <https://www.gov.uk/government/statistics/dcms-sectors-economic-estimates-2017-trade>


¹³ <https://www.gov.uk/government/statistics/dcms-sectors-economic-estimates-2017-trade>.

hunarmandchiligi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Madaniy inqilobdan keyin 70-80-yillarda Xitoy hukumati hunarmandchilikni qayta tiklashga katta e'tibor berdi. 1979 yilda "Islohot va Ochilish" siyosati tufayli ushbu sektor rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar va zamonaviy jamiyatning yangi muammolariga duch keldi. Shunday qilib, hukumat 1997 yilda hunarmandchilikni izchil rivojlantirish uchun an'anaviy hunarmandchilik va san'atni himoya qilish to'g'risidagi nizomni e'lon qildi, bu qoidalar juda muhim va Xitoy hunarmandchiligi rivojlanish tarixida burlish nuqtasi bo'ldi (Jiang, 2019).

Xitoyda qadimdan "hunarmandchilik" atamasi barcha qo'l mehnati turlarini tasvirlash uchun ishlatilgan bo`lib, "hunarmandchilik" va "san'at" o'rtaida jiddiy farqlar yo'q edi, bundan tashqari, "hunarmandchilik" "san'at" ning barcha ko'nikmalari va shakllarini o'z ichiga olgan. Boshqacha aytganda, "san'at" - bu Xitoya kirib kelgan xorijiy so'z edi (Huang va boshqalar, 1893).

«Hunarmandchilik va san'at» tom ma'noda pragmatik va estetik xususiyatlarga ega; ya'ni hunarmandchilik iste'molchining ba'zi kundalik ehtiyojlarini qondiradigan va har qanday sharoitda qadriyatlarni ifoda etadigan funksiyaga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham Xitoyda "hunarmandchilik va san'at" muqarrar ravishda madaniy va iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga ta'sir qiladi, deb hisoblanadi. Bundan farqli o'laroq, "tasviriy san'at" bu uning yaratuvchilarining shaxsiy tajriba va estetik badiiy-ijodiy saviyasini yetkazib berish vositasidir. Xronologik jihatdan "hunarmandchilik va san'at" ni uch turga ajratish mumkin: an'anaviy, yangi va zamonaviy.

Birinchidan, "an'anaviy hunarmandchilik va san'at" davriy xarakterga ega bo`lib, boshqa hunarmandchilik turlari bilan solishtirganda, qo'llar mashinalarda emas, balki ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynashi kerak. Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashining 1997 yil 20 maydag'i 217-sonli qarori bilan e'lon qilingan "An'anaviy hunarmandchilik va san'atni himoya qilish to'g'risida" gi nizomga¹⁴ ko`ra, "An'anaviy hunarmandchilik va san'at" shakli va mahorati jihatidan yuz yildan ortiq davriy bosqichni o'z ichiga olib, bu hunarmandchilik turlari avloddan-avlodga o'tib borishi, o`ziga xos to'liq texnik jarayonlarga ega bo'lishi, faqat tabiiy xom ashyo foydalanishi, milliy uslub va mahalliy xususiyatlarni o'zida aks ettirishi, shuningdek, ichki va tashqi sohalarda yuqori obro'ga ega bo'lishi kerak (3-rasm).



3-rasm. Hunarmandchilik turlari

Ikkinchidan, "yangi hunarmandchilik va san'at" Xitoyda rasmiy ta'rifga ega emas. Ammo Xitoy hunarmandchilik sohasidagi izlanishlar natijasida uni yangi xom-ashyolar, yangi texnologiyalar va yangi mazmun-mohiyatga ega deb tavsiflash mumkin. Garchi "yangi hunarmandchilik va san'at" hali ham Xitoyning an'anaviy madaniyati asosida amal qilishi kerak bo`lsada, u yangi turmush tarzi va iste'molchilarning didiga mos kelishi kerak.

¹⁴ http://www.artchn.com/collect/law/artchn_95738.html.

Bundan tashqari, "yangi hunarmandchilik va san'at" ning o'ziga xos xususiyati bozor bilan bog'liq bo`lish bilan birga "an'anaviy hunarmandchilik va san'at" ning muhim qadriyatlarini saqlab qoladi, shuningdek, ilg'or uskunalar, boshqaruvning yangi usullari va yangi ijodiy g'oyalarni import qiladi. Ya'ni, "yangi hunarmandchilik va san'at" an'anaviy va zamonaviy, mahalliy va xalqaro, konservativ va ijodiy munosabat o'rtasidagi mukammal birlikni anglatadi.

Uchinchidan, "zamonaviy hunarmandchilik va san'at" o'xshash xususiyatlari tufayli "tasviriy san'at" bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu soha vakillari yuksak ijodiy tafakkur va murakkab ko'nikmalarga ega bo`lish bilan birga boshqa hunarmandlardan farq qiladi, chunki ular o'zlarining shaxsiy tajribalari va his-tuyg'ularini ifoda etishni istaydilar va o'z rollarini yuksak sanat darajasiga olib chiqadilar. Shuning uchun ham zamonaviy hunarmandlarning asarlari, hattoki an`anaviy va yangi hunarmandchilik vakillari tan olishni istamasalar ham, iste'molchilarga ko`proq manzur bo'lishini ko'rish mumkin (Jiang, 2019).

Xitoy hukumati hunarmandchilik an`analarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun so'nggi yillarda ko'proq e'tibor bermoqda. Xitoyning ko'plab provintsiyalarida doimiy ravishda keng qamrovli tashkilotlarni tashkil qilish bilan birga sohadagi muammolarni hal qilish, uning o'sishini rag'batlantirish uchun tegishli siyosat va qonun-qoidalarni e'lon qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi hunarmandchilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda barqaror institutsional tizimni joriy qildi. (2-jadval)

2-jadval

Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashining hunarmandchilikni rivojlantirish bo`yicha institutsional tuzilmasi

Nº	Hunarmandchilikni rivojlantirish bo`yicha institutsional tuzilmasi
1. Milliy darajada	<p>Davlat aktivlarini nazorat qilish va boshqarish komissiyasi (The State-owned Assets Supervision and Administration Commission, (SASAC) 2003) – Davlat Kengashining bevosita rahbarligi ostidagi muassasa bo`lib, to'g'ridan-to'g'ri Davlat kengashiga bo'ysunadigan maxsus vazirliklar darajasida amal qiladi va Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi zimmasiga yuklangan vazifalarni bajaradi¹⁵.</p> <p>Xitoy milliy hunarmandchilik va san'at kooperatsiyasi (China National Crafts & Arts (Group) Cooperation, 1972) – Xitoyning hunarmandchilik va san'at sanoatida yetakchi bo`lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon hunarmandlar Kengashining a`zosi hisoblanadi. Asosan uchta yo`nalishda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xalqaro savdoda "hunarmandchilik va san'at" ni targ`ibot qilish; - chakana savdo; - ko'chmas mulkni rivojlantirish masalalari bilan shug`ullanadi. <p>Hozirda ushbu korporatsiya to'rtta yirik biznesni, jumladan, "san'at va hunarmandchilik" uchun xomashyo, "san'at va hunarmandchilik" mahsulotlari, zargarlik buyumlari va madaniy sohadagi xizmatlarni amalgalashadi. Shuningdek, sanoatni qamrab oluvchi oltita operatsion kompaniyalarga ega. Jami aktivlari 11,5 milliard yuanni, yillik daromadi taxminan 37 milliard yuan, importning umumiy hajmi - 6 mlrd. dollarni tashkil etadi¹⁶.</p> <p>Xitoy Hunarmandchilik va San'at Uyushmasi (China Crafts & Arts Association, (CA&CA) 1988) – Xitoyning Fuqarolik Ishlari Vazirligi tomonidan milliy birlashma sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tgan notijorat tashkilot bo`lib, hukumat va hunarmandchilik sanoati, shuningdek, hunarmandlar hamjamiyati o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi. U Xitoy an'anaviy san'at va hunarmandchiligidni samarali himoya qilishni qo'llab-quvvatlaydi va Xitoyda hunarmandchilik sanoatining rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, an'anaviy hunarmandchilikni targ'ib qilishda Xitoy hunarmandchilik korxonalari va hunarmandlariga rahbarlik qilish, san'at va hunarmandchilik sanoatini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish bo'yicha takliflar berish, bu sohani xalqaro maydonda tanishtirish va Xitoyning madaniy merosini dunyoda ommalashtirish kabi vazifalarni bajaradi. CA&CA Xitoyning 365 ta san'at va hunarmandchilik ustalari, 3200 ta viloyat hunarmand ustalari, 5000 nafar katta ustalar va rassomlar, shuningdek, Xitoyning 32 viloyat va shahar san'at va hunarmandchilik idoralari bilan samarali tarmoqni yaratdi¹⁷</p>
	Xitoy Milliy San'at va Hunarmandchilik Jamiyati (China National Arts & Crafts Society,

¹⁵ <http://en.sasac.gov.cn/aboutus.html>

¹⁶ http://www.cnacgc.com/T_second_en/index.aspx?nodeid=175

¹⁷ <http://www.cnaca.org/english/about/index.html>

	1979) – bu yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan birinchi darajali davlat birlashmasi
2. Hududiy darajada	Munitsipal yoki provinsiya hukumati (Municipal or Provincial People's Government). Xitoyning iqtisodiy va axborot texnologiyalari bo'yicha komissiyasi (Economic and Information Technology Commission of China). Xitoyning 23 ta hunarmandchilik va san`at uyushmalari (Crafts and Arts Associations of China 23 in total).
	Xitoyning 25 ta hunarmandchilik va san`at jamiyati (Crafts and Arts Societies of China 25 in total).
3. Mahalliy darajada	Vakolatli hunarmandchilik va tadqiqot institutlari (Representative Crafts and Research Institutes)
4. Norasmiy darajada	Vakolatli hunarmandchilik va san`at ijtimoiy guruhlari (Representative Crafts and Arts Social Groups)

Biroq, Xitoy hunarmandchiligi rivojlantirishda muammolar ham yo`q emas. Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi hamda Moliya va Madaniyat vazirliklari bu boradagi islohotlarni amalga oshirishda ba'zi masalalar bo'yicha o`zaro yondashuvlarning farqliligi, resurslarni taqsimlash va kompleks rejalshtirishning yo'qligi sabab jiddiy muammolarga ham duch kelmoqda. Shuningdek, ba'zi hunarmandchilik tashkilotlari moliyaviy yordamga ega emaslar va hunarmandlar ulardan hech qanday manfaat ko`rmaydilar. Xitoyning to'rtdan bir viloyatidagina rasmiy qoidalar va me`yorlar mavjud xolos. Xitoy hukumati hunarmandchilik doirasida juda ko'p ishlarni amalga oshirgan bo'lsa ham, Xitoyda hunarmandchilik tizimini tashkil qilish hali ham ko'plab muammolarga duch kelmoqda.

Xitoyda hunarmandchilik bo'yicha kadrlar tayyorlashda ta`lim alohida ahamiyat kasb etadi. O`tmishda asosan hunarmandlar avloddan avlodga yoki "usta-shogird" maktablari orqali yetishib chiqqan bo`lsa, so'nrgi 100 yil ichida hunarmandchilik bo'yicha ta`lim tizimi yo`lga qo`yildi, ya`ni kollej yoki universitetlarda hunarmandchilik sohalariga o`qitildi.

1949 yildan boshlab hunarmandchilik ta`limining rivojlanishi uch bosqichda amal qildi (Jiang, 2019). Ta`lim sohasida islohotlar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilsada, bu sohaga ikki yoqlama, ya`ni iqtisodiy va madaniy soha tarkibi sifatida hukumat darajasida tortishuvli yondashuvlar va moliyalashtirish masalasi tufayli ba`zi kollej va universitetlarda qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda.

Xitoyda hunarmandchilikni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashning yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, "an'anaviy hunarmandchilik va san'at" ni saqlash va rivojlantirish borasida 1954 yildan beri hunarmandlarning kuchli bilim, puxta mahorati va o`ziga xos takrorlanmas tajribasiga qarab mukofotlash tizimi yo`lga qo`yilgan, ya`ni, "Qadimiy hunarmand" va "Xitoy hunarmand ustasi" unvonlari ta`sis etilgan. Milliy darajadagi unvon uchun, "An'anaviy hunarmandchilik va san'atni himoya qilish to'g'risida"gi nizomga muvofiq, hunarmand ma'lum sifat xususiyatlariга javob berishi va uzoq vaqt davomida hunarmandchilik bilan shug'ullangan bo'lishi kerak. "Xitoy hunarmand ustasi" milliy darajadagi mukofotlar olti marotaba berilgan (1979, 1988, 1993, 1997, 2006 va 2011).

Yaponiyaning hunarmandchilikni rivojlantirish siyosati

Yaponiya ham hunarmandchilik va uni qo`llab-quvvatlash borasida eng yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanib, bu borada ham madaniy, ham iqtisodiy siyosat olib boriladi.

Yapon lug`atida g'arb falsafasi kirib kelgunga qadar "san'at" (Bijutsu¹⁸) degan so'z mavjud bo`Imagan. Lekin, "hunarmandchilik" (Kougei¹⁹) so'zi ham san'at, ham hunarmandchilik tushunchalarini izohlashga xizmat qilgan. San'at va hunarmandchilik o'rtasida ierarxiya bo`Imagan, ya`ni ular farqlanmagan.

"Hunarmandchilik" o`zida milliy tarixiy an`analarni tarannum etish bilan birga madaniyat, san`at va sanoatning ham asosi hisoblanadi. Bugunga qadar "kougei" deb nomlangan Yaponiya hunarmandchiligi uzoq tarix davomida puxta ishlab chiqilgan, yuqori

¹⁸美術 (bijutsu)–san`at, tasviriy san`at.
https://www.tanoshiijapanese.com/dictionary/entry_details.cfm?entry_id=46892

¹⁹工芸 (koigei) sanoat san`ati, hunarmandchilik.
https://www.tanoshiijapanese.com/dictionary/entry_details.cfm?entry_id=26512

texnologiyalarni inkor qiluvchi va yuqori ma'naviyati bilan qo'llab-quvvatlanuvchi soha sifatida xalqaro miqyosda tan olingen. Hozirgi kunga Yaponiyaning Global Kougei birjasi²⁰ (Global Kougei Exchange) Yapon hunarmandchiligin ko'rgazma, mahorat darslari, nashriyot faoliyati va boshqalar orqali dunyoga tanitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu sohaga qiziquvchi yosh rassomlar va tadqiqotchilarga hunarmandchilik bilan astoydil va doimiy ravishda shug'ullanishlari uchun kerakli barcha imkoniyatlarni taqdim etib kelmoqda.

Ushbu tashkilot, Hunarmandchilik inson tafakkurining yuksak mahsuli ekanligini chuqur anglagan holda uning kelgusi avlodga yetkazish masalasiga maqsadli mas'uliyat bilan yondashadi (4-rasm).

Mahalliy va xalqaro hunarmandchilik ko'rgazmalari, tadbirlarni rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish;	Hunarmandchilikning turli sohalari mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar, mahorat darslari, seminarlar va boshqalarni rejalashtirish va amalga oshirish
Yaponiya va xorijda faoliyat olib borayotgan hunarmandlarni e'tirof etish va ularni qo'llab-quvvatlash	mahalliy va xorijiy hunarmandlar mahsulotlari va rassomlari asarlarining ma'lumotlar bazasi taqdim etish
Veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, boshqa axborot vositalaridan foydalanib, missiyalararini keng targ'ib qilish va hunarmandchilik, rassomlar va ko'rgazmalar haqida ma'lumotni yapon va engiz tilida taqdim etish	Tashkilot a'zolari uchun trening va ma'ruzalar uyushtirish

4-rasm. Global Kougei birjasining asosiy maqsadi

Shuningdek, "Monozukuri"²¹ atamasi mavjud bo'lib, hunarmandchilik ruhini o'zida mujassam etgan ma'naviy jismlarni yaratishni anglatadi va uzoq vaqt yapon hunarmandchiliga xos bo'lган bu yondashuv nafaqat Yaponiyada, balki xalqaro miqyosda ham qadrlanib kelinmoqda. Ushbu tushuncha zamonaviy bo'lib, 1998 yilda Yaponiya Bosh vazirining tashhabbusi bilan Monozukuri bo'yicha maslahat kengashi (monozukuri kondankayi) tashkil etildi va "Monozukuri jamg'armasi texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risi"da asosiy qonun qabul qilindi. Bu qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad Yaponiyada 1990 yillarda moliyaviy inqiroz tugaganidan so'ng mavjud buxronlarni bartaraf etish va Yaponiyaning kuchli tomonlarini ko'rsatish edi. Tokio universiteti ishlab chiqarishni boshqarish tadqiqot markazi professori Takahiro Fujimoto - Yaponiyaning eng taniqli monozukuri nazariyotchisi hisoblanib, monozukurini "san'at, fan va ishlab chiqarish hunarmandchiliği" deb atagan²².

Meiji²³ davrining boshida (1868) Yaponiya ishlab chiqarish bo'yicha orqada qolgan mamlakat edi. Texnologiya hali rivojlanmagan va mahsulotlarning aksariyati oddiy vositalar yordamida qo'l bilan qilingan. Biroq, texnologiya joriy etilgandan so'ng, hunarmandchilik iqtisodiy hunarmandchilik va badiiy hunarmandchilikka bo'lindi.

Ma'lumki, hunarmandchilik ham madaniy, ham iqtisodiy xususiyatga ega. Shuning uchun ham uni rivojlantirishda ham madaniy, ham iqtisodiy siyosat olib boriladi. Yaponiya madaniy siyosati nuqtai nazaridan, hunarmandchilik moddiy va nomoddiy madaniy merosni

²⁰ <http://kougeijapan.net/aboutus-en/>

²¹ <http://kougeijapan.net/aboutus-en/>

²² <https://www.japanintercultural.com/en/news/default.aspx?newsid=88>

²³ Meiji (a, 明治) - imperator Mutsuxito (Meydzi)ning hukmronligi ostidagi 1868 yil 23 oktyabrdan 1912 yil 30 iyulgacha bo'lган Yaponiya tarixidagi davr. Bu davr Yaponiyaning o'zini o'zi yakkalanishini rad etilishi va g'arb mamlakatlari bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga kirishishi bilan belgilanadi <https://www.japan-guide.com/e/e2130.html>

anglatsa, Sanoat va iqtisodiy siyosat nuqtai nazaridan, hunarmandchilik ma'lum bir hududiy ixtisoslashuvga ega tarmoqlarni anglatadi.

Intellektual mulk huquqlaridan foydalanish to'g'risida gap ketganda, mualliflik huquqi badiiy hunarmandchilikka nisbatan qo'llaniladi, chunki ular ijodiy jihatdan takrorlanmas o'ziga xoslikni qamrab oladi. Bundan farqli o'laroq, savdo belgilari ommaviy ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladigan oddiy hunarmandchilik va dizaynlarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, Yaponiya huquqshunoslari mualliflik huquqi ba'zan oddiy hunarmandchilikka nisbatan qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydilar, chunki ularning estetik jozibasi ham o'ziga xoslikni namoyish etadi (Kazuko, 2019).

Yaponiyada madaniy siyosat hunarmandchilikning tarixiy va madaniy qiymatini saqlab qolishga qaratilgan bo`lib, hunarmandchilik ko'nikmalariga nomoddiy madaniy meros sifatida qaraladi. 1954 yilda "Tirik milliy meros (the Living National Heritage) ga asos solindi. Tirik milliy xazina - bu o'tmishdan hozirgi kunga qadar hunarmandchilikning muhim an'anaviy ko'nikmalarini o'zida mujassam etgan inson bo`lib, hunarmandlar ierarxiyasining eng yuqori nuqtasi hisoblanadi va hunarmandchilik buyumlari uchun "brend" yaratilishiga hissa qo'shadi. "Tirik milliy xazina" deb tan olingen hunarmandlar o`z hunarlarining sir-sinoati uchun yosh hunarmandlarga o`rgatishlarini rag`batlantirish maqsadida davlat tomonidan yiliga 20000 AQSh dollari miqdorida mablag` oladi. Bu mablag` mukofot emas, balki, ularning bilim va ko`nikmalarini kelajak avlodga qoldirish maqsadida ta`lim berayotganligi uchun to`lov hisoblanadi. 2017 yilda "Tirik milliy xazina" lar soni 176 tani tashkil etdi (Kazuko, 2019).

Biroq, an'anaviy usullar va xom-ashyodan foydalangan holda tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari turmush tarzining o'zgarishi va yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli muammolarga duch kelmoqda. Buni hal qilish maqsadida Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) 1974 yilda "an'anaviy hunarmandchilik"²⁴ ni rivojlantirish va vazirlik tomonidan belgilab qo'yilgan hunarmandchilik turlari bo`yicha merosini saqlash va davom ettirish maqsadida "An'anaviy hunarmandchilik sanoatini rivojlantirish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi (oxirgi marotaba 2019 yil 20 noyabrda yangitdan tahrir qilindi²⁵). Bugungi kunga qadar (2019), Yaponianing turli hududlaridan 235 ta mahsulot tanlab olingen²⁶. Qonunga muvofiq "DENSAN"²⁷ sifatida tan olingen hunarmandchilik turlari iqtisodiyot vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarga murojaat qilishi mumkin va bugungi bozorda qanday mahsulotlar sotilishi to'g'risida maslahat olishlari mumkin. Shuningdek, yangi mahsulot g'oyalari bo'yicha hunarmandlar bilan hamkorlik qilish uchun dizaynerlarni ishlab chiqarish maydonlariga jalb qiladi. An'anaviy hunarmandchilik sanoatini qo'llab-quvvatlashda ikkita element muhim ahamiyatga ega: ko'nikmalarni meros qilib olish va hunarmandchilik sanoatini rivojlantirish. DENSAN vazirlik, mahalliy hokimliklar va mintaqaviy hunarmandchilik uyushmalari bilan hamkorlik asosida an'anaviy hunarmandlarni sertifikatlaydi. Sertifikatlash ma'lum bir hunarmandchilik sanoatiga ixtisoslashgan hududda imtihon topshirish va kamida o'n ikki yillik ish tajribasini talab qiladi (Kazuko, 2019).

Hunarmandchilik mahsulotlari "DENSAN" yoki an'anaviy hunarmandchilik sifatida belgilanishi uchun uyushma talabi bo`yicha beshta mezonga javob berishi kerak (Maruko, 2015). Shu bilan birga, vazirlik (METI) va ushbu uyushma tomonidan hunarmandlarning chet elga chiqib, o'zlarini sinab ko'rishlari va u yerda biznes imkoniyatlari bo`yicha izlanishlar olib borishlariga alohida e'tibor qaratadilar, chunki globallashuv - bu ijtimoiy hodisadir, uni to'xtatish mumkin emas. Shundagina, hunarmandlar o`z mahsulotlaridan bir oz farq qiladigan yangi va innovatsion mahsulotlarni yaratish ko'nikmalarini shakllantirishi va dunyo bozoriga chiqishlari mumkin.

Yaponiyada an'anaviy hunarmandchilik saqlanib kelayotganligining yana bir sababi shundaki, an'anaviy hunarmandchilik sohalari klasterga moyil bo'lib, bunda hunarmandchilik

²⁴ Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) an'anaviy xom-ashyo va 100 yildan ortiq tarixga ega qo'l mehnatidan foydalilanidigan hunarmandchilik faoliyatiga "an'anaviy hunarmandchilik" belgisini beradi. https://www.meti.go.jp/english/press/2019/1120_003.html.

²⁵ https://www.meti.go.jp/english/press/2019/1120_003.html

²⁶ https://www.meti.go.jp/english/press/2019/1120_003.html

²⁷ "DENSAN" uyushmasi 1975 yilda Yaponiyada an'anaviy hunarmandchilik sanoatini rivojlantirish maqsadida, Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI) bilan hamkorlikda tashkil etilgan va Tokio markazida, Aoyama shahrida flagman do'konini boshqaradi. Shuningdek, Yaponiya hunarmandchiliqini global miqyosda faol ravishda reklama qiladi va ularning bozorini kengaytirishga hissa qo'shadi. <http://densan-world.jp/about.html>

tumanlari muhim rol o'ynaydi. Hunarmandchilik tumanlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat.

- ko`nikma va malaka ixtisoslashgan tuman ichida shakllanadi hamda innovatsiyalarni rag'batlantiradi;

- kichik korxonalar ushbu tumanlarda o'zaro hamkorlik qilishadi va raqobatlashadi, natijada "moslashuvchan ixtisoslashuv" iste'molchilar talablariga moslashishga yordam beradi;

- tumanlar brend yaratishi mumkin;

- an'anaviy hunarmandchilik tumanlari hunarmandlar, kichik va o'rta korxonalar va ulgurji savdo korxonalarini o`z ichiga oladi.

METI o'z ishlab chiqarish tumanlaridagi an'anaviy hunarmandchilik buyumlari uchun yuqorida qayd etilgan 235 turiga yordam beradi. Aytish kerakki, yakka tartibdag'i hunarmandlar METI subsidiyalarini olmaydilar. METI subsidiyalarining maqsadi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- an'anaviy hunarmandchilik vorislarini vujudga keltirish va ularga hunarmandchilik sirasrorlarini o'rgatish;


- malaka va ko'nikmalarni qayd etib borish;

- an'anaviy hunarmandchilik uchun zarur bo`lgan xom-ashyolarni tadqiq etib borish;

- an'anaviy hunarmandchilikka talabni oshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish;

- yangi dizaynlarni yaratish.

Lekin, amaldagi milliy ahamiyatga ega bo`lgan sa'y-harakatlarga qaramay, an'anaviy hunarmandchilik sanoati barqaror ravishda pasayishi kuzatilgan. Mahsulotlarni sotish hajmi 1990 yildagi 508 milliard iyendan 2010 yilda 118 milliard iyenga tushgan va ishchilar soni ham bu davrda 205 mingdan 73 minggacha kamaygan²⁸. Bunga turmush tarzining o'zgarishi va arzon tovarlar importi jiddiy ta'sir qildi. Asosiy muammolardan biri, har bir korxonada o'rtacha hisobda 5-6 ta hunarmand mehnat qilib, ularning o'rtacha yoshi o'sib borishi kuzatilgan, chunki ushbu sohalarda yosh ishchilarni jalb qilish ancha qiyin masalaga aylangan edi.



5-rasm. An'anaviy hunarmandchilik sanoatida savdo (birligi: milliard iyena) va ishchilar soni (birlik: ming) (Kakiuchi va Takeuchi, 2014).

METI mavjud muammoli vaziyatni hisobga olib, bu sohani qayta isloh qilishga harakat qildi va DENSAN bilan hamkorlikda mahsulot eksportini kuchaytirishga kirishdi. Bunga yapon hukumati tomonidan 2010 yilda asos solingen "Cool Japan" strategiyasi misol bo'lalari. Bu eksport va turizmni rag'batlantirish uchun Yaponianing obro'sini oshirishga qaratilgan

²⁸ https://www.meti.go.jp/committee/summary/0002466/006_06_00.pdf

reklama strategiyasi bo`lib, hukumat 58,6 milliard iyena, xususiy kompaniyalar esa assotsiatsiyaga 10,7 milliard iyena sarmoya kiritgan (Kazuko, 2019). "Cool Japan" strategiyasiga binoan METI moda, animatsiya, milliy taomlar madaniyati va an'anaviy hunarmandchilik kabi ijodiy sohalarni ilgari suradi. 2011 yilda "Yaponiya-Xitoy animatsion sanoat assotsiatsiyasi" sifatida tashkil etilgan. 2013 yilda assotsiatsiya kengayib, butun dunyoni qamrab oldi va nomi "Cool Japan Association" deb o'zgartirildi. 2015 yildan beri "Cool Japan" kashfiyoti va sertifikati Cool Japan Awards mukofotlari orqali amalga oshirilmoqda²⁹. Assotsiatsiyaning olib borgan strategik tadbirlari natijasida chet eldan Yaponiyaga tashrif buyuradigan sayyoqlar soni tez sur'atlar bilan o'sib, 2010 yilda 8,61 millionni tashkil etgan bo`lsa, 2016 yilda 24,04 millionga o`sgan.

"Cool Japan" strategiyasi Yaponiyaning brend imidjini yaratishga va tashqi bozorlarni rivojlantirishga va ijodiy mahsulotlarni tarqatishga qaratilgan. Biroq, ushbu tumanlarda an'anaviy hunarmandchilik sanoatining klasteri va mohir hunarmandlar ishlaydi. Hunarmandchilik tumanlari o`zlarining ishlab chiqarish tizimiga ega, shuning uchun agar strategiya ishlab chiqarish tizimiga mos kelmasa yoki malakali hunarmandlar uchun ishlamasasi, ushbu strategiyaning ta'siri cheklanadi.

5. Xulosa va takliflar.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash o`rinligi, har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o`ziga xos farqlanuvchi xususiyatlari bor. Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarni o`rganish jarayonida ushbu farqli xususiyatlarning mavjudligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Shuningdek, har bir mamlakat uchun hunarmandchilikning madaniy ahamiyati bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy o`rni naqadar yuksak ekanligiga bir nechta mamlakatlar misolida ishonch hosil qilish mumkin. Ushbu mamlakatlarning boy tajribasi o`rganish borasida, bugungi kunda mamlakatimizda ham hunarmandchilik mahsulotlarini jahon miqyosida milliy brend darajasida olib chiqish va mamlakatimizda turizm salohiyatini yuksaltirishda bevosita xizmat qiluvchi xususiy birja va agentliklarning faoliyatini yo`iga qo`yish, hunarmandchilik doirasida alohida ahamiyatli yo`nalishlari bo`yicha oliy ma`lumotli, xalqaro doirada raqobatlasha oladigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek, avloddan avlodga o`tib kelayotgan an`analar asosida faoliyat yuritayotgan, boy ilmiy-amaliy tajribaga ega bo`lgan hunarmandlar va xalq amaliy san`ati ustalarini alohida rag`batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Adabiyotlar:

- Bennett J. (2019) Crafts Policies in the UK. DOI: 10.1007/978-3-030-02164-1_12.
https://www.researchgate.net/publication/333706662_Crafts_Policies_in_the_UK.
- Frater, J. (2015) Valuing the Unique: Craft Traditions in the Contemporary Market. Keynote address for the International Textile and Apparel Association Annual Conference, November 2015.
- Jiang L. (2019) Crafts in China. Springer International Publishing.
<https://www.springerprofessional.de/crafts-in-china/16797678>.
- Huang, Qingcheng. 黄庆澄. 1893. China. <东游日记> [Diary of Travel Around Japan].
- Klamer A., Kotipalli P., Jiang L., Fjeldsted T., and Mignosa A. (2013) Herwaardering Ambachtscultuur Hoofdzaak. Stiching Economie en Cultuur, Erasmus University Rotterdam.
<https://adoc.tips/herwaardering-ambachtscultuur-hoofdzaak.html>
- KPMG LLP. (2016) Innovation through craft: Opportunities for growth. A report for the Crafts Council Executive summary.
- Kazuko G. (2019) Crafts Policies in Japan. A Cultural Economic Analysis of Craft. Switzerland. Palgrave Macmillan.
- Kakiuchi E., Takeuchi K. (2014) Creative industries: Reality and potential in Japan. Japan. National Graduate Institute for Policy Studies 7-22-1 Roppongi, Minato-ku, 106-8677.
- Luckman, S. (2015) Craft and the Creative Economy. Switzerland. Palgrave Macmillan.
- Mignosa A., Kotipalli P. (2019) A Cultural Economic Analysis of Craft. Switzerland. Springer Nature Switzerland AG.
- Maruko M. (2015) Rethinking, updating traditional crafts. The Japan Times. ExpoMilano2015. <https://www.japantimes.co.jp/culture/2015/05/03/arts/rethinking->

²⁹<http://www.cooljapan.info/en/about.html>

updating-traditional-
crafts/#.Xp9MX8gzZPY//https://www.meti.go.jp/english/press/2019/1120_003.html